



QO'QON SHAHAR MUSIQALI DRAMA TEATRIDA KOMEDIYA JANRINING RIVOJLANISHI VA "HASAN KAYFIY" SPEKTAKLINING BADIY TALQINI

Sardorjon G'ulomov

*O'zDSMI, "Musiqali teatr aktyorligi"
mutaxassisligi 2-kurs magistranti*
 Email: gulomovsardorjon@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Qo'qon shahar musiqali drama teatrida komediya janrining rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Xususan, G'afur G'ulom asari asosida yaratilgan "Hasan Kayfiy" spektaklining sahnaviy talqini, rejissyorlik yechimlari, aktyorlik ijrosi hamda xalqona yumor va satira vositalarining badiiy-estetik imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda spektaklning tomoshabin tafakkuriga ta'siri, milliy teatr an'analari bilan uyg'unligi va komediya janrining teatr repertuaridagi o'rni ilmiy nuqtai nazardan baholanadi. Shuningdek, asarda xalq og'zaki ijodi elementlaridan foydalanish hamda obrazlar talqinining ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Qo'qon teatri, komediya janri, Hasan Kayfiy, sahnaviy talqin, rejissyorlik yechimi, aktyorlik mahorati, satira, yumor, teatr repertuari, milliy teatr.

THE DEVELOPMENT OF THE COMEDY GENRE IN THE KOKAND MUSICAL DRAMA THEATRE AND THE ARTISTIC INTERPRETATION OF THE PERFORMANCE "HASAN KAYFIY"

Abstract: This article examines the development of the comedy genre in the Kokand Musical Drama Theatre during the years of independence. Particular attention is paid to the stage interpretation of the performance "Hasan Kayfiy," based on the work of Gafur Ghulam, including its directing concepts, acting techniques, and the artistic potential of folk humor and satire. The study analyzes the influence of the performance on the audience, its connection with national theatrical traditions, and the role of comedy within the theatre's repertoire. In addition, the article explores the use of folklore elements and evaluates the educational and moral significance of character interpretation.

Keywords: Kokand Theatre, comedy genre, Hasan Kayfiy, stage interpretation, directing concept, acting skills, satire, humor, theatre repertoire, national theatre.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Qo'qon shahar musiqali drama teatri repertuar siyosatida komediya janriga nisbatan tarixiy mavzudagi sahna asarlariga ustuvor ahamiyat berildi. Bu holat, avvalo, mamlakat mustaqillikka erishgach, milliy

o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash hamda yosh avlodni milliy va ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan umumdavlat siyosati bilan uzviy bog'liq edi. Natijada teatr repertuarida drama janri yetakchi mavqeni egallab, tarixiy shaxslar, milliy qahramonlar va xalqimizning boy madaniy merosini aks ettiruvchi asarlar ko'proq sahnalashtirildi.

Mazkur davrda komediya janriga murojaat nisbatan sust bo'lib, repertuarda asosan avvalgi yillarda sahnalashtirilgan va tomoshabinlar orasida mashhurlikka erishgan "Xotinlar bilan hazillashmang" komediyasi uzoq vaqt davomida saqlanib qoldi. Keyinchalik XX asrning so'nggi yillarida Madamin Jo'rayev rejissyorligida sahnalashtirilgan "Jon desang, jonim beray" komediyasi teatr repertuaridan o'rin oldi. Biroq komediya janrining faol rivojlanishi va yangi sahna asarlari bilan boyishi asosan XXI asr boshlariga to'g'ri keladi.

2000-yillardan boshlab Qo'qon shahar musiqali drama teatrida komediya janri doirasidagi ijodiy izlanishlar sezilarli darajada faollashdi. Mazkur jarayon teatr jamoasining badiiy salohiyati va sahnaviy tajribasi ortib borishiga xizmat qildi. Natijada komedik spektakllarda aktyorlik mahorati, sahnaviy talqin va dramaturgik yechimlar takomillashib, teatrning o'ziga xos ijro uslubi shakllana boshladi.

Shunday asarlardan biri sifatida 2004-yilda sahnalashtirilgan J. Xudoyberdiyev tomonidan G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligiga bag'ishlab yaratilgan "Hasan Kayfiy" komediyasini alohida qayd etish mumkin. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Madamin Jo'rayev tomonidan sahnalashtirilgan ushbu spektakl teatr repertuarining munosib namunalaridan biriga aylandi. Asarda oddiy va savodsiz xalq vakilining sodda turmushi orqali uning yuksak insoniy fazilatlari, samimiyligi hamda pok qalbi namoyon etiladi. Spektaklning tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyati ham aynan shu jihatlarda mujassamdir.

"Hasan Kayfiy" komediyasi o'zining satirik va yumoristik yo'nalishi bilan tomoshabinlar e'tiborini qozonishga muvaffaq bo'ldi. Asar G'afur G'ulom qalamiga mansub bo'lib, sahna talablari asosida Madamin Jo'rayev tomonidan qayta ishlangan va dramatik kompozitsiyaga moslashtirilgan. Bunda asarning badiiy tili, xalqona ruhiyati va satirik mazmuni saqlab qolinganda, ayrim lavhalar hamda personajlar nutqi zamon talablari va tomoshabin didiga mos ravishda yangicha talqin etilgan. Shu bilan birga, asarning asosiy g'oyaviy yo'nalishi o'zgartirilmagan.

Spektakl markazida Podshoh va Hasan Kayfiy obrazlari turadi. Mazkur rollarni aktyorlar M. Siddiqov va N. A'zamov mahorat bilan ijro etib, jamiyatdagi ayrim illatlar va ijtimoiy nuqsonlarni satirik vositalar orqali ochib berishga muvaffaq bo'lganlar. Ayniqsa, ularning harakatlari, nutqiy ifodasi hamda sahnaviy munosabatlari tomoshabinda kulgi bilan birga chuqur mushohada uyg'otadi.

Spektaklning badiiy ta'sirchanligini ta'minlovchi muhim omillardan biri prolog qismidagi hikoyachi obrazi hisoblanadi. Hikoyachining ertakona uslubda olib borilgan bayoni, xalqona iboralar, o'tkir kinoyalar va yumoristik ifodalar bilan boyitilgani spektaklning jonli va tomoshabop chiqishiga xizmat qilgan. Aynan ushbu uslub sahna asariga xalq og'zaki ijodi an'analari xos ruh bag'ishlab, komediyaning badiiy jozibasini yanada kuchaytirgan.

Umuman olganda, "Hasan Kayfiy" komediyasi Qo'qon shahar musiqali drama teatri repertuarida komediya janrining yangi bosqichga ko'tarilishida muhim o'rin

tutgan sahna asarlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. [2, 214-b] Spektakl nafaqat kulgi vositasida tomoshabinni hordiq chiqarishga, balki jamiyatdagi muammolar va insoniy fazilatlar haqida chuqurroq mushohada yuritishga ham undaydi.

“Hasan Kayfiy” spektakli kulgili hikoya asosida sahnalashtirilgan bo‘lib, uning rejissyorlik talqini asarning mazmuniy asoslarini saqlab qolgan holda, sahna san’ati talablariga muvofiq ayrim ijodiy o‘zgartirishlar bilan boyitilgan. Ushbu o‘zgarishlar, avvalo, aktyorlar ijrosi va sahnaviy talqinda yaqqol namoyon bo‘ladi. Spektaklda hikoyachi obrazi alohida dramaturgik vazifani bajaradi. Mazkur personaj aktyor va rejissyor Madaminjon Jo‘rayev tomonidan xalqona ruhda talqin etilib, asar voqealari mahalliy tomoshabinlarga yanada yaqinlashtirilgan. Jumladan, hikoyada uchraydigan ayrim geografik nomlarning Qo‘qon shahri va uning atrofidagi hududlar nomlari bilan almashtirilishi spektaklning xalqchilik darajasini oshirgan. Bunday yondashuv tomoshabin bilan sahna o‘rtasidagi ma‘naviy yaqinlikni kuchaytirib, asarning ta‘sirchanligini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Hikoyachi obrazining sahnaviy talqinida an‘anaviy o‘zbek xalq tomosha san’ati unsurlaridan ham unumli foydalanilgan. Xususan, aktyor M. Jo‘rayevning masxarabozlarga xos grim va tashqi qiyofada namoyon bo‘lishi milliy teatr an‘analariga murojaat sifatida e‘tiborni tortadi. Uning nutqidagi ohangdorlik, hikoya davomida ovozning turli vaziyatlarga mos ravishda o‘zgarishi, yuz ifodalarining boyligi hamda noverbal vositalardan mohirona foydalanishi personajning badiiy jozibasini kuchaytirgan. Ayniqsa, kulgili imo-ishoralar, kinoyaviy qarashlar va harakatlar spektaklning yumoristik ruhini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Hikoyachining xalqona iboralarga boy nutqi tomoshabinni asardagi ikki asosiy qahramon — Podshoh va Hasan Kayfiy obrazlarini qiyosiy idrok etishga undaydi. Shu tariqa tomoshabin bir tomonda davlat va boylik qudratiga tayangan hukmdorni, ikkinchi tomonda esa mehnatsevarligi, halolligi va pok qalbi bilan ajralib turuvchi oddiy kosib yigitni ko‘radi. Voqealar rivoji davomida Hasan Kayfiyning ma‘naviy ustunligi tobora yaqqol namoyon bo‘lib boradi. Podshoh va Hasan Kayfiy obrazlari aktyorlar M. Siddiqov hamda N. A‘zamov tomonidan yuksak mahorat bilan gavdalanitirilgan. Ularning sahnadagi o‘zaro munosabatlari va xarakterlar to‘qnashuvi asarning asosiy g‘oyaviy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Xususan, Podshohning moddiy qudrati va hukmron mavqeiga qaramay, u Hasan Kayfiyni o‘z e‘tiqodi va hayotiy qarashlaridan voz kechishga majbur qila olmaydi. Aksincha, Hasan Kayfiy o‘zining halol mehnatga bo‘lgan ishonchi va insoniy fazilatlari bilan ma‘naviy g‘alabaga erishadi.

Spektakldagi kulgili vaziyatlar, yumor va satira vositasida yaratilgan sahnalar yakunda jiddiy falsafiy xulosaga olib keladi. Hikoyachi tomonidan berilgan yakuniy yechim orqali tomoshabinga insonning haqiqiy boyligi uning qalb pokligi, mehnatsevarligi va vijdonida ekanligi haqidagi g‘oya yetkaziladi. Hasan Kayfiy saroydan haydalgan bo‘lsa-da, o‘zining mustaqil fikri va halol mehnati tufayli ma‘naviy jihatdan g‘olib sifatida namoyon bo‘ladi.

Spektakl muvaffaqiyatida bosh rol ijrochilari M. Siddiqov va N. A‘zamovning aktyorlik mahorati bilan bir qatorda, rejissyor Madaminjon Jo‘rayevning ijodiy izlanishlari ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, Podshoh obrazining sahnaviy talqini e‘tiborga loyiqdir. G‘afur G‘ulom hikoyasida mazkur personaj ayrim hollarda sodda

va mulohazasiz shaxs sifatida taassurot uyg‘otsa, sahna talqinida u mutlaqo boshqacha qiyofada namoyon bo‘ladi.

Rejissyor konsepsiyasiga ko‘ra, Podshoh ahmoq yoki mutlaqo aqlsiz shaxs emas. Aksincha, u muayyan darajada aql va tafakkur egasi bo‘lsa-da, iroda zaifligi, atrofidagi laganbardor va manfaatparast kishilar ta‘siriga berilishi hamda xalq manfaatlariga befarqligi bilan ajralib turadi. Shu sababli spektakldagi Podshoh obrazi qaharli, shaxsiyati kuchli, biroq ma‘naviy mezonlarda zaif inson sifatida gavalantirilgan. Bunday talqin qahramon xarakterini murakkablashtirib, uni biryoqlama kulgili personaj darajasidan chiqarib, yanada hayotiy va ishonarli obrazga aylantirgan. [3, 167-b]

Umuman olganda, “Hasan Kayfiy” komediyasi xalqona yumor, satira va ma‘rifiy g‘oyalarning muvaffaqiyatli uyg‘unlashuvi natijasida yaratilgan sahna asari bo‘lib, Qo‘qon shahar musiqali drama teatri repertuarida komediya janrining rivojlanishida muhim bosqichlardan biri sifatida e‘tirof etilishi mumkin.

Adabiyotshunos R.Tojiboyevning fikricha, rejissyor M.Jo‘rayevning badiiy to‘qimaga tayangan holda, personaj xarakterini yaratishdagi bu kabi islohiy yondashuvi sahnadagi hayot manzarasining ishonarliligi, ayni paytda, tomoshabin fikriy doirasining shakllanishiga ham yetarli darajada turtki bo‘la olgan. [1, 23-b]

Spektakldagi Hasan rolini sahnada gavalantirgan aktyor N.A‘zamov o‘z qahramonining halol va mehnatkash singari fazilatlarini bilan bir qatorda, kezi kelganda odamoxunligi, jaydari, do‘lvorilik jihatlari bilan sahnada insonning jonli qiyofasini ifodalay olgan.

Ushbu komik asar uzoq vaqt teatr repertuarida eng tomoshabop asar sifatida o‘rin egallab keldi. Har qanday sahna asarining shuhratini ta‘minlovchi asosiy omil asarning xalqchilligidir. Muayyan badiiy asar asosida yangi inssenirovka yaratish uchun badiiy to‘qima zamiriga hayotiy haqiqat mezonlari singdirilmas ekan, u tomoshabinni ishontira olmaydi. Sahnadagi olamni aks ettirishda hayotiy haqiqat, hayotga aynan o‘xshashlik tomoshabin ishonchini qozonadi.

“Hasan Kayfiy” komediyasida qo‘llanilgan qo‘shiq va musiqiy parchalar o‘zbek xalq folkloriga mansub, xalq orasida keng tarqalgan kuy va laparlar asosida tanlab olingan bo‘lib, asarda asosan doira jo‘rligida ijro etish ustuvorlik qiladi. Spektaklning dastlabki sahnalaridan birida xalq cholg‘ulari ansambli ijrosida yangragan “Nasriddin qo‘shig‘i” xalq kuyi o‘zining quvnoq va jo‘shqin ohangi bilan tomoshabin diqqatini sahnaga to‘liq jalb etishga muvaffaq bo‘lgan. [4, 93-b]

Qo‘qon shahar musiqali drama teatri ijodiy jamoasi mustaqillik yillarida komediya janridagi asarlarni sahnalashtirish borasida doimiy izlanishlar olib borgan. Teatr ijodiy muhitida shakllangan “ustoz–shogird” an‘anasi asosidagi mahorat maktabi esa yosh ijodkorlar muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri sifatida xizmat qilmoqda. Jumladan, 2010-yilda sahnaga qo‘yilgan “Ko‘rmaganning ko‘rgani qursin” komediyasida jamiyatda uchrayotgan turli illatlar tanqid ostiga olinib, xalqni hushyorlikka chaqirish, tor dunyoqarashga ega ayrim insonlarni zamonaviy fikrlashga undash g‘oyasi ilgari surilgan. Shu bilan birga, insonlar orasida moddiy boylikka ruju qo‘yish kabi ma‘naviy kamchiliklarning salbiy oqibatlarini ochib berilib, hayotda berilgan har bir lahzani qadrlash, uni sog‘lom turmush va ma‘naviy kamolot yo‘lida sarflash, tuban illatlarga qarshi turish zarurligi spektaklda alohida ta‘kidlangan.

XI asr boshlarida Qo‘qon shahar musiqali drama teatrida komediya janrining faollashuvi nafaqat repertuar siyosatidagi o‘zgarishlar, balki teatr jamoasining badiiy-estetik qarashlari yangilanishi bilan ham bog‘liqdir. “Hasan Kayfiy” spektakli misolida kuzatilganidek, milliy folklor an‘analari, xalqona yumor va zamonaviy sahnaviy talqin uyg‘unligi komediya janrining tarbiyaviy hamda ma‘rifiy imkoniyatlarini kengaytirgan. Bu esa mazkur spektaklni mustaqillik davri o‘zbek teatr san‘atida komediya janrining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan sahna asarlaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. G‘ulom G‘. Hasan Kayfiy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983.
2. Tojiboyev R. Premyeradan so‘ng... // Qo‘qon sadosi. – 2004. – 13 aprel. – №22.
3. Ahmedov M. O‘zbek teatr tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
4. Qodirov M. Teatr nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Rahmonov M. O‘zbek milliy teatri taraqqiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.